

### JAMIYATIMIZDAGI NOGIRONLIGI MAVJUD BO'LGAN SHAXSLAR UCHUN YARATILGAN SHAROITLAR VA BU SOHADAGI CHET EL TAJRIBASI

Adahambekov Qudratbek Avazbek o'g'li

*Andijon viloyati yuridik texnikumi bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ayni yillarda “Inson huquqlari” to‘g‘risida butun dunyoda bong urilayotgan bir vaqtida, mamlakatimizdagi turli soha vakillari uchun yaratilgan shart-sharoitlarni ko‘rib insonni ko‘zi quvnaydi, ammo bir jamiyat vakillariga bo‘layotgan e‘tibor, ularga yaratilayotgan sharoitlar istalgan inson ko‘zini namlashi mumkin. Nogironligi mayjud bo‘lgan shaxslar uchun bugungi kunda mamlakatimizda lozim darajada shart-sharoitlar yaratilganmi?! Nega endi barcha sharoitlar faqat to‘rt muchasi sog‘ insonlar uchun bo‘lishi kerak. Xo‘sish, ko‘zi ojizlarning ko‘chalarda hech kimming yordamisiz harakatlanishiga, sayr qilishga haqlari yo‘qmi, yoki eshitish qobiliyati past insonlar bilan turli nohush hodisalar sodir etilishi yanada ko‘payishi kerakmi? Ushbu maqolada shu kabi jamiyatimizni qiyab kelayotgan vaziyatlarni ko‘rib chiqamiz va muammolar yuzasidan o‘z takliflarimni berib o‘taman.

**Kalit so‘z:** Shaxs, imkoniyat, sharoit, qonun, nogironligi bo‘lgan shaxs, xalqaro

Albatta, shuni ta‘kidlash kerakki, dunyo miqqosida imkoniyati cheklanganlar uchun turli qonunlar va ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida turli kelishuvlar imzolangan. Ulardan biri Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan Nogironligi bo‘lgan shaxslar Huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi dir.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Nogironligi bo‘lgan shaxslar Huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyasi (UNCRPD) - bu 2006-yil 13-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan xalqaro inson huquqlari shartnomasıdir. U nogironligi bo‘lgan barcha shaxslarning barcha inson huquqlari va asosiy erkinliklardan to‘liq va teng bahramand bo‘lishini himoya qilish va ta‘minlash, shuningdek ularning tabiiy hurmatini targ‘ib qilish maqsadida tuzilgan.

UNCRPDning asosiy jihatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Qonun oldida kamshitmaslik va tenglik
- Jismoniy muhitga, transportga, axborotga va kommunikatsiyalarga kirish imkoniyati
- Hayot huquqi va ekspluatatsiyadan, zo‘ravonlikdan va suiste’moldan ozodlik
- Shaxsiy hayotga va oilaga hurmat
- Ta’lim, sog‘lijni saqlash va mehnat huquqlari
- Siyosiy, jamoat, madaniy hayotda, dam olishda, bo‘sh vaqtda va sportda ishtirok etish

Konvensiyani ko‘plab mamlakatlar ratifikatsiya qilgan. Shu jumladan O‘zbekiston 2021-yil 28-iyun sanasida ushbu hujjatni ratifikatsiya qilgan.

O‘zbekiston Respublikasida nogironligi bo‘lgan shaxslarning ijtimoiy hayotda, turli munosabatlarda huquqlarini ta‘minlash, ularga ko‘maklashish va shu masalalar yuzasidan bir qancha qonun hujjatlari qabul qilingan. Ijtimoiy himoya, bandlikni ta‘minlash, yordam puli ajratish va shu kabi munosabatlar shular jumlasidan.

O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari sohasida so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. 2020-yilda "Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari to'g'risida"gi yangi Qonun qabul qilindi va 2021-yilda BMTning Nogironlar Huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasini (UNCRPD) ratifikatsiya qilish orqali bu boradagi majburiyatlarini tasdiqladi.

O'zbekiston hukumati nogironligi bo'lgan shaxslarga nisbatan jamiyatning munosabatini o'zgartirishga intilmoqda. Masalan, UNDPning O'zbekistondagi dasturi nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish bo'yicha yangi dasturni ishga tushirish orqali hukumatga yordam bermoqda<sup>2</sup>. Shuningdek, O'zbekiston Konstitutsiyasi va UNCRPD asosida qabul qilingan qonunlar nogironligi bo'lgan shaxslarga kamida 20 kishi ishlaydigan davlat muassasalari va xususiy korxonalarida ish o'rinnarining kamida 3 foizini ajratishni majburiy qiladi.

Bu o'zgarishlar nogironligi bo'lgan shaxslarning hayot sifatini yaxshilash va ularning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga qaratilgan muhim qadamlardir.

Albatta, davlatimiz tomonidan keng ko'lamda rivojlantirish maqsadida turli ishlar amalga oshirilmoqda, shu jumladan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun ham bir qancha qulayliklar yaratildi, ammo, nazаримча bular yetarli emasdek.

Afsuski, jamiyatimizning ayrim vakillari, nogironligi bo'lgan shaxslarga, turli yomon ko'zlar bilan qaraydilar, ularga muomala madaniyatidan chetga chiqqan holda munosabatda bo'ladilar. Psixologiya shunday narsaki, bir insonga yoki bir jamiyat vakillariga qilinayotgan munosabat ortidan aynan shu jamiyatning boshqa vakillari salbiy xulosaga keladilar va ularning dunyo qarashi va fikrashi ham salbiy jihatga ketadi, ularning hayotdan qiziqishlari so'nib, bu dunyodan zerika boshlaydi. Axir ular ham siz va bizga o'xshagan oddiy odamlar, Allohnинг bir bandasi-ku. Ularga biz xuddiki, bizning yelkamizdagi ortiqcha yukday qarasak, ular uchun ko'chalarda, binolarda, oziq-ovqat shahobchalarida, sayilohlarda, umuman olganda jamoat joylarida erkinlik bilan harakatlanishlari mumkinni?. Albatta ularda ham ko'ngil bor, ularning ham xo'rliги keladi axir insonlarning nigohlaridan, ularning xatti-harakatlari va muomalasidan.

Davlatimiz tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslarning ta'lim olishi uchun zarur sharoitlar yaratib berilmoqda, ularning bandligi ta'minlanmoqda, ular turli xil sport musobaqalarida qatnashib, davlatimiz sha'nini xalqaro arenalarda yuksaklarga ko'tarishmoqda.

Ko'priklar, ko'p qavatlari uylar, dorixonalarning zinalari, davlat idoralarining kirish zinalari, svetaforlar, piyodalar yo'laklari, bozorlar, supermarketlar, sayilohlar, bog'lar, chorraxalar - bu joylarda bizga o'xshagan odamlar bemalol, hech kimmering yordamisiz aylanib yura olamiz. Ho'sh, oyog'ida nuqsoni borlarchi? Ko'zi ojizlarchi va qulog'ida nuqsoni borlarchi? Ularning ko'ngil ochishga, sayr qilishga, shahar aylanishga, bog'larga borishga haqlari yo'qmi?! Nega endi ular o'zlari mustaqil emas, albatta biror insonni band qilgan holda ushbu ishlarni amalga oshirish kerak. Bunga aybdor aslida kim, ularga shart-sharoit yaratib berish davlatning zimmasida emasmidi? Ko'priklarda, zinalarda, binolarda nogironligi asosan oyog'ida nuqsoni borlar uchun sharoitlar yaratilgan, lekin xaql tilida aytganda "ko'zbo'yamachilik uchun".



Ushbu rasmda siz Andijon shahrida joylashgan ko‘priklardan birini ko‘rib turibsiz. Zinalarning chap tomonida joylashgan temir yo‘lidan bir nogironligi mavjud shaxsning yakka o‘zi harakatlanib, yuqoriga ko‘tarila oladimi, hatto biror odamning yordami bilan ham bu ish mushkul ko‘rinadi. Bu holat nafaqat Andijonda, balki boshqa viloyatlarda ham kuzatilishi mumkin.

Xatto Kun.uz ning bir postida aynan shu mavzu ilgari surilgan.



Ushbu rasmda Yaponiyada joylashgan piyodalar o‘tish yo‘lagidagi nogironligi mavjud insonlar uchun yaratilgan sharoitga guvoh bo‘lishingiz mumkin. Yaponiya va ko‘plab mamlakatlarda ushbu jamiyat vakillari uchun sharoitlar yetarli darajada ta‘minlab berilgan,

ularning o‘zлari hech qanday qiinchiliklarsiz ko‘chada aylanishlari mumkin. Hatto svetaforlardan o‘tishda ham ularga qulayliklar yaratish maqsadida, avtomat ovoz o‘rnatilgan, ya‘ni svetaforming piyodalar uchun qizil va yashil chiroqlarida turli ovozlar chiqadi.

Ushbu muammolarni qanday hal etsa bo‘ladi. Albatta birinchi navbatda qilinishi kerak bo‘lgan ish, nogironligi bo‘lgan shaxslar bilan uchrashuv o‘tkazib, ularni qiyab kelayotgan muammolarni atroflicha o‘rganish kerak. Ularni ichidan qanday hislar o‘tishini faqat o‘zлari biladi. So‘ngra ular uchun ko‘chalarda sharoitlar yaratish ishlariga o‘tsa o‘ladi. Bu jarayonda birinchi galda, yo‘lklarda harakatlanishlari uchun sharoit yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. So‘ng chorrahalarda va ko‘priklarda, metro va binolarga kirish zinalaridagi sharoitlarni “shunchaki” emas, mukammal darajada amalgalash kerak.

Yaponiyada nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yaratilgan sharoitlar va imkoniyatlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

➤ **Sog‘liqni saqlash va yordam xizmatlari:** Yaponiya sog‘liqni saqlash va nogironligi bo‘lganlar uchun yordam xizmatlarini takomillashtirishga katta e’tibor qaratadi. Bu xizmatlar nogironligi bo‘lgan shaxslarning mustaqilligini qo’llab-quvvatlash va ularning jamiyatda faol ishtirok etishlarini rag‘batlantirishga qaratilgan.

➤ **Qonunchilik:** Yaponiya hukumati nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish va ularning jamiyatdagi ishtirokini qo’llab-quvvatlash uchun turli qonunlar qabul qilgan. Masalan, "Nogironlar uchun Asosiy Qonun" nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlarini aniq belgilab beradi va hukumat hamda mahalliy hokimiyatlarning mas’uliyatlarini belgilaydi.

➤ **Ish joyida moslashuvchanlik:** Yaponiya ish joylarida nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun moslashuvchan sharoitlar yaratishni talab qiladi va ba’zi hollarda davlat tomonidan moslashuvchanlik xarajatlarini qoplash uchun to’lovlar beriladi.

➤ **Mehnat bozorida ishtirok etish:** Nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ish topish va mehnat bozorida ishtirok etish imkoniyatlari yaxshilanmoqda. Bu borada hukumat va mahalliy hokimiyatlardan turli dasturlar va tadbirlar orqali ko‘maklashmoqdalar.

➤ **Jamiyatdagi faol ishtirok:** Yaponiya nogironligi bo‘lgan shaxslarning jamiyatdagi faol ishtirokini rag‘batlantirish uchun "Nogironlar Haftaligi"ni o‘tkazadi, bu esa ularning jamiyatdagi turli sohalarda ishtirok etishlarini targ‘ib qiladi.

Shuni ta’kidlash kerakki, Yaponiyada nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun yaratilgan sharoitlar va imkoniyatlar doimiy ravishda yaxshilanib bormoqda va bu borada yangi siyosatlar va dasturlar ishlab chiqilmoqda. Biroq, nogironlar uchun mo‘ljallangan muassasalarda ishchi kuchi tanqisligi kabi muammolar ham mayjud. Ushbu sharoit va imkoniyatlar jahondagi ko‘plab mamlakatlar tomonidan ham yaratilgan hisoblanadi.

Xulosa sifadida shuni aytish mumkinki, nogironligi bo‘lgan shaxslar ham inson, ularda ham ko‘ngil bor, ularning ham hohishlari va istaklari bor. Biz ularni shunchaki esdan chiqarib yubora olmaymiz, ular uchun yaratilishi zarur bo‘lgan sharoitlarga qo‘l uchuda yondasha olmaymiz, aksincha, biz ularni hayotga bo‘lgan qiziqishini qaytarishimiz, ularning qalbida ishonch olovini yoqishimiz kerak va zarur. Ular shunchaki unutilib ketmasligi kerak.

“Ular aslida bor, lekin ular yo‘q” - bunday bo‘lmashligi kerak.

“Ular aslida bor, ular ko‘p ishga qodir, ular ham biz kabi sharoitlarga haqli”